HUDUDIY RIVOJLANISHDA MAHALLIY BUDJET VA MOLIYAVIY MANBALARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH MEKANIZMLARI	1530
Sharipov Abror Komilovich	
O'ZBEKISTON O'RTA BIZNES KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR, SABABLAR VA KOMPLEKS YECHIMLAR	1538
Kutimov Baxtiyor, Abduraimova Maftunaxon Axmatovna	
FISKAL SIYOSAT VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: DAVLAT QARZI, INVESTITSİYALAR VA SOLIQ YUKLAMASI TA'SIRINING EKONOMETRIK BAHOLASHI	1541
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
YAYLOV CHORVACHILIGIDA HUDUDIY IXTISOSLASHUVNI SHAKLLANTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI	1550
Xalmirzaev Axmadjan Axunovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA "YASHIL" MENEJMENTNI JORIY ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	1555
Abdullaev Nokisbay Abdullaevich	
YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA YASHIL SOLIQLARNING AHAMIYATI: IQTISODIY TARAQQIYOT SARI YASHIL QADAM	1559
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich	



METHODOLOGICAL MODELS FOR THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN REGIONS	1566
Majidova Sanobar Daminovna	
UZBEKISTAN UTILIZES DIGITAL PLATFORMS TO PROMOTE SUSTAINABLE GROWTH IN TOURISM: A COMPARATIVE STUDY BASED ON THE BELT AND ROAD INITIATIVE.....	1573
Li Yang	
SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT JARAYONLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.. 1581	
Tuyinov Botir Ismatovich	
TRANSFORMATION OF THE VOCATIONAL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN: CULTURAL AND INSTITUTIONAL APPROACHES.....	1588
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
GULCHILIK TARMOG'IDA OILAVIY KASBIY SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH: TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA	1594
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	
RAQAMLASHTIRISH BOSHQARUV INFRATUZILMASI SIFATIDA: O'ZBEKISTONDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR VA KORPORATIV BOSHQARUV.....	1599
Ruziyeva Barno Yadgarovna	
IJRO HUJJATLARINI MAJBURIY IJRO ETISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	1602
Matmuratova Nasiba Azatovna	
IJRO HUJJATLARI TALABLARINI BAJARISHDAN BO'YIN TOVLAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI SODDALASHTIRISH MASALALARI	1607
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
AHOLINI IJTIMOİY TA'MINOT TIZIMINING TAMOYILLARI VA UNING MOLİYAVIY MEXANIZMLARI	1611
Xusanov Baxodir Sheraliyevich	
BEYOND GREEN: THE ECONOMIC IMPACT OF ELECTRIC URBAN TRANSPORT INFRASTRUCTURE	1615
Khannarov Komiljon Karimovich, Shukurillaev Nizomiddin Akmaljon ugli	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLARNING QAYTMASLIGI (NPL) VA LIKVIDLIK: PUL OQIMLARIDAGI UZILISHLAR TAHLILI	1621
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
KREATIV SANOAT VA TURIZM INTEGRATSIYASI: ZAMONAVIY SHAHARLAR IQTISODIY MODELIDAGI YANGI YONDASHUV.....	1628
Raxmonova Nilufar Yorqinovna	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLİYALASHTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	1632
M.O.Yuldoshova	
ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SANOAT SEKTORIGA "YASHIL" INVESTITSİYALARNI JALB ETISH VA BOSHQARISH YO'LLARI.....	1636
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ВИРТУАЛЬНЫХ АКТИВОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ СИСТЕМУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	1644
Хатамов Азизжон Абдумажитович, Абдураупов Рустам Рамзович	
AVTOMOBIL SANOATIDA BRENД STRATEGIYASINI RAQAMLI MARKETING VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH 1650	
Boboyev L. Kadrxo'ja Djuraxodjayeich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA BOSHQARUV TAHLILINING ZARURATI..... 1657	
Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI	1661
Nosirov Jasur Tursunpulotovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL ENERGIYA SIYOSATINING IQTISODIY SAMARADORLIGI (2015-2025-YILLAR TAHLILI)..... 1667	
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
SUG'URTA XIZMATLARI HAJMINI EKONOMETRIK BAHOLASH	1671
Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	



BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA TURIZMNING MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA STATISTIK MONITORING TIZIMI	1675
Q.A. Musaxanov	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1679
Ulashev Xubbim	
BANKLARDA YASHIL DEPOZITLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT	
MOLIYA SIYOSATIDAGI O'RNI.....	1684
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI	
OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI.....	1695
Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV VA CHAKANA BANK XIZMATLARINI	
ASOSIY MOLIYAVIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	1707
Saipnazarova Mohinur Utkir qizi	
O'ZBEKISTONGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA	
INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH BILAN BOG'LIQ MAVJUD	
MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	1712
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi	
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH.....	1720
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
СПЕЦИФИКА И АНАЛИЗ ПРЕДПОЧТЕНИЙ РОССИЙСКИХ ТУРИСТОВ	
ПРИ ПОСЕЩЕНИИ УЗБЕКИСТАНА	1725
Усманова Дилъфруз Каршиевна	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA	
HUQUQIY-INSTITUTIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1733
Sharapov Azamat Masharipovich	
XORIJ TAJRIBASIDA BANKLARARO RAQOBAT VA BANK TIZIMI BARQARORLIGI	
O'RTASIDAGI NAZARIY MUNOSABATLAR.....	1739
Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich	
LOGISTIKA TIZIMLARI UCHUN REAL VAQT MONITORING TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH.....	1745
Kucharova Shaxlo Sobir qizi	
SANOAT KORXONALARIDA INSON CAPITALINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING	
ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1749
Xusanova Malohat Mingnorovna	
"QUYUV MEKANIKI ZAVODI" AJDA ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH	
YO'NALISHLARI	1755
Suyunova Zuxra Bahodir qizi	
MAKROMINTAQAVIY DARAJADA TRANSPORT EFFEKTLARINI BAHOLASH	
USULLARI VA VOSITALARINI RIVOJLANTIRISH.....	1761
Omonova Sug'diyona Mamadavidovna	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASINI ASOSIDA G'AZNACHILIK XIZMATI QO'MITASI VA UNING	
BO'LINMALARIGA DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI	
TAKOMILLASHTIRISH.....	1766
Guzal Navruzova	
MILLIY VALYUTA KURSI BARQARORLIGINING MAKROIQTISODIY OMILLARI: INFLYATSIYA, FOIZ STAVKASI VA	
TO'LOV BALANSI NAZARIY TAHLILI	1773
G'afurov Olimjon G'olib o'g'li	
AVTOMOBIL TRANSPORTI KORXONALARIDA AUDIT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING	
NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA RISKKA ASOSLANGAN YONDASHUV.....	1778
Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich	
MAKROMINTAQAVIY DARAJADA TRANSPORT EFFEKTLARINI BAHOLASH USULLARI VA	
VOSITALARINI RIVOJLANTIRISH	1782
Omonova Sug'diyona Mamadavidovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTNI XALQARO STANDARTLAR (MHXS)	
ASOSIDA YURITISH IMKONIYATLARI	1787
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Xalmatova Sevara Rahimovna	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASINI ASOSIDA G'AZNACHILIK XIZMATI QO'MITASI VA UNING	



BO'LINMALARIGA DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH... 1794

Guzal Navruzova

AKT SOHASIDAGI KORXONALARDA MAJBURIYATLAR BO'YICHA HISOB SIYOSATINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....1800

Amirov Askar Aktamovich

MOLIVAVIY INVESTITSİYALAR HISOBİ VA AUDITI1804

Zaripova Sayohat Zafarovna

O'ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI1809

Abdullayev Bobirjon Mamurjanovich

KOMPOZIT INDEKSLARNI HISOBLASHDA ME'YORLASHTIRISH USULLARIDAN FOYDALANISHNING QIYOSIY TAHLILI1816

Axmedova Rayxona Jasurbek qizi

TURISTIK RESURLARNING TASNIFI VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR1821

Q.A. Musaxanov

O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI1824

Turayev Abduvoxid Kuldashovich

AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI1829

Berdiyev Abdumalik Hakimovich

ESG TAMOYILLARI ASOSIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI1836

Ashurov Furkatjon Shuxratovich

MINTAQAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI RAQAMLI BOSHQARUV PLATFORMASI KONSEPTUAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH1840

Toxirova Nigora Zokirjon qizi

IQTISODIYOT ILMIDA GIPOTEZA, GIPOTETIKDEDUKTIV VA AKSIOMATIK METODLAR: mazmuni, ahamiyati va qo'llash xususiyatlari.....1848

Dusmuratov Radjapbay Davlatbayevich

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBİ VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH1853

Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN TAHLILIY METODLAR VA BAHOLASH TIZIMLARI.....1860

Raxmanov Zafarjon Yashinovich

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОРПОРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ1868

Бозорова Ирина Жуманазаровна

QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH ME'ZONLARI1877

Shixiyev Raxim Muhammedovich

KORXONALAR MOLIVAVIY-XO'JALIK FAOLIYATIGA SOLIQ MEXANIZMI TA'SIRINI BAHOLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI1881

Babaxonov Ja'far Muxiddinovich

TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN BOG'LIQ OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH.....1888

Xudoyqulov Xurshid Xurramovich

TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARINING TARKIBIY XUSUSIYATLARI1893

Shomansurova Zilola Abduvoxidovna

XALQARO AMALIYOTDA EKSPORTCHI KORXONALARNING TASHQI BOZORLARGA CHIQISHINI MARKETING YONDASHUVLARI ASOSIDA QO'LLAB-QUVVATLASH MODELLARI.....1899

Xojiyev Elshod



XALQARO AMALIYOTDA EKSPORTCHI KORXONALARNING TASHQI BOZORLARGA CHIQUISHINI MARKETING YONDASHUVLARI ASOSIDA QO'LLAB-QUVVATLASH MODELLARI

Xojiyev Elshod

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti, PhD

ORCID: 0000-0003-2428-4266

E-mail: e.xojiyev@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada eksportchi korxonalarning tashqi bozorlarga chiqishini marketing yondashuvlari asosida qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan samarali modellar tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya tajribalari o'rganilib, ushbu mamlakatlarda eksportni rag'batlantirishda marketing tadqiqotlari, bozor axboroti bilan ta'minlash, eksport konsaltingi, brending hamda eksportni institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati baholangan. Shuningdek, eksportni rivojlantirishga mas'ul tashkilotlar faoliyati, amalga oshirilayotgan dasturlar hamda korxonalarning xalqaro bozorlarga moslashuvini ta'minlovchi marketing instrumentlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida eksportchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashning samarali marketing modellari aniqlanib, ularni O'zbekiston amaliyotida qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Olingan natijalar milliy eksport salohiyatini oshirish, korxonalarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda eksport geografiyasini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: marketing tadqiqotlari, eksportchi korxonalar, tashqi bozorlar, marketing yondashuvlari, eksportni qo'llab-quvvatlash, xalqaro tajriba.

Аннотация. В данной статье проведен анализ эффективных моделей поддержки выхода экспортно-ориентированных предприятий на внешние рынки, применяемых в международной практике на основе маркетинговых подходов. В рамках исследования изучен опыт Соединенных Штатов Америки, Великобритании и Республики Корея, а также дана оценка роли маркетинговых исследований, информационного обеспечения рынков, экспортного консалтинга, брендинга и институциональных механизмов поддержки экспорта в данных странах. Кроме того, проанализированы деятельность организаций, ответственных за развитие экспорта, реализуемые программы поддержки, а также маркетинговые инструменты, способствующие адаптации предприятий к требованиям международных рынков. По результатам исследования выявлены эффективные маркетинговые модели поддержки экспортно-ориентированных предприятий и разработаны научно-практические рекомендации по их применению в условиях Узбекистана. Полученные результаты могут способствовать повышению национального экспортного потенциала, укреплению конкурентоспособности предприятий на международных рынках и диверсификации географии экспорта.

Ключевые слова: маркетинговые исследования, экспортно-ориентированные предприятия, внешние рынки, маркетинговые подходы, поддержка экспорта, международный опыт.

Abstract. This article analyzes effective international models for supporting export-oriented enterprises in entering foreign markets through marketing-based approaches. The study examines the experiences of the United States, the United Kingdom, and the Republic of Korea, assessing the role of marketing research, market information services, export consulting, branding, and institutional export support mechanisms in these countries. In addition, the activities of organizations responsible for export promotion, existing support programs, and marketing instruments facilitating enterprises' adaptation to international market requirements are examined. The findings identify effective marketing-based support models for export-oriented enterprises and provide scientific and practical recommendations for their application in Uzbekistan. The results may contribute to enhancing national export potential, strengthening the competitiveness of enterprises in international markets, and diversifying export destinations.

Keywords: marketing research, export-oriented enterprises, foreign markets, marketing approaches, export support, international experience.



KIRISH

Jahonda ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarning eksportga yo'naltirilgan tashqi savdo siyosati natijalarini tahlil qilish xalqaro savdo global o'sish, iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni kamaytirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Shu bois ko'plab mamlakatlar tashqi savdoni rag'batlantirishga qaratilgan muhim islohotlarni amalga oshirib kelmoqda.

2024-yilda global savdoda qariyb 9,7 trillion dollar miqdoridagi mablag' savdoni rag'batlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu barcha xalqaro savdo operatsiyalarining 80 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Ushbu holat savdoni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining xalqaro savdo ekotizimidagi muhim o'rnini ko'rsatadi.

Rivojlangan mamlakatlar eksportning iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ish o'rinlarini yaratish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishdagi strategik ahamiyatini uzoq vaqtdan beri e'tirof etib kelmoqda. Shu maqsadda ular eksportni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab dastur va siyosatlarni joriy etgan. Mazkur jarayon odatda maxsus eksportni rag'batlantirish agentliklari, tijorat banklari hamda xususiy moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Misol uchun, tashqi savdoni rag'batlantirish mexanizmlari orqali "Multi Fruit USA" kompaniyasi meva-sabzavot mahsulotlarini Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlariga yetkazib bergan bo'lsa, Bangladeshdagi kichik to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchisi — Dhaka Textiles Ltd. AQShdagi chakana savdo gigantlaridan biri Macy'sga 500 ming dollarlik mahsulot eksport qilishga erishgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport faoliyatini rivojlantirish va korxonalarning tashqi bozorlarga chiqishini qo'llab-quvvatlash masalalari xalqaro marketing va xalqaro biznes sohasidagi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar eksportni rag'batlantirish dasturlari hamda marketing instrumentlarining eksport samaradorligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Cadogan va hammualliflar eksport bozoriga yo'naltirilgan marketing faoliyati hamda eksport samaradorligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini asoslab berganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, korxonalarning tashqi bozorlar haqidagi bilimlari va marketing strategiyalarini moslashtirish qobiliyati eksport muvaffaqiyatining muhim determinantlaridan biri hisoblanadi [1].

Francis va Collins-Dodd eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlari korxonalarning eksport kompetensiyalari, marketing strategiyalari va umumiy eksport samaradorligini rivojlantirishga yordam berishini asoslab berganlar [2].

Lederman, Olarreaga va Payton 103 mamlakat misolida eksportni qo'llab-quvvatlash agentliklari faoliyatini tahlil qilib, eksportni rag'batlantirish institutlari eksport hajmining o'sishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar. Mualliflar eksport agentliklari tomonidan taqdim etiladigan axborot, marketing va konsalting xizmatlari korxonalarning tashqi bozorlarga kirish xarajatlarini kamaytirishini ta'kidlaydilar [3].

Freixanet eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlarining korxonalar xalqaro faoliyatiga ta'sirini o'rganib, bunday dasturlar eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish, yangi mijozlarni topish hamda xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishini aniqlagan. Ayniqsa, eksport faoliyatini endi boshlayotgan korxonalar uchun marketing va maslahat xizmatlarining ahamiyati yuqori ekanligi qayd etilgan [4, 6].

Freixanet va Churakova Rossiya ishlab chiqaruvchi korxonalari misolida eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlarining eksport kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rganib, davlat tomonidan taqdim etiladigan marketing va maslahat xizmatlari eksport natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar [5].

Catanzaro va Teyssier tadqiqotlarida eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlari korxonalarning eksport salohiyati, risklarni boshqarish amaliyoti hamda xalqaro bozorlardagi faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan [7].

So'nggi yillarda zamonaviy tadqiqotlar eksport marketingi, xalqaro ko'rgazmalar, biznes missiyalar, eksport konsaltingi va bozor axboroti xizmatlari korxonalarning eksport raqobatbardoshligi hamda eksport natijalarini yaxshilashda muhim rol o'ynashini tasdiqlamoqda [8, 9].

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar eksportchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashda marketing tadqiqotlari, bozor axboroti, eksport konsaltingi, brending va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq eksportchi korxonalarni marketing yondashuvlari asosida qo'llab-quvvatlashning mamlakatlar kesimidagi amaliy modellarini qiyosiy tahlil qilish masalasi hali yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya tajribalarini o'rganish orqali ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda eksportchi korxonalarni tashqi bozorlarga olib chiqishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganishga qaratilgan kabinet tadqiqoti (*desk research*) metodologiyasidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Yaponiyada eksportni rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi davlat hamda yarim davlat tashkilotlarining rasmiy hisobotlari, strategik hujjatlari, normativ-huquqiy manbalari va ilmiy adabiyotlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli orqali turli mamlakatlarda eksportchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashda qo'llanilayotgan marketing yondashuvlari, jumladan, bozor tadqiqotlari, eksport konsaltingi, brending, biznes missiyalar, ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etishni rag'batlantirish instrumentlari solishtirildi. Kontent tahlili yordamida eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlarining maqsadlari, mexanizmlari va amaliy natijalari tizimlashtirildi.

Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalarni umumlashtirish va sintez qilish usullaridan foydalanilib, O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan marketing asosidagi eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari aniqlanib, tegishli ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi. Tadqiqotda tahlil qilingan mamlakatlar tajribasi asosida eksportchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashning institutsional, axborot-maslahat va marketing-kommunikatsiya komponentlarini o'z ichiga oluvchi konseptual tasniflash yondashuvi qo'llanildi. Mazkur yondashuv xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan qo'llab-quvvatlash modellarining o'xshash va farqli jihatlarini tizimli ravishda aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan institutlar, jumladan, mintaqaviy taraqqiyot banklari va xalqaro moliya kompaniyalari tomonidan savdoni rivojlantirishga ajratilayotgan mablag'lar izchil oshirib borilmoqda. Xususan, Xalqaro moliya kompaniyasi tomonidan ajratiladigan mablag'lar 1,5 milliard dollardan 3 milliard dollarga, Amerikaaro taraqqiyot banki mablag'lari 0,5 milliard dollardan 1 milliard dollargacha, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mablag'lari 1 milliard dollardan 2 milliard dollargacha hamda Osiyo taraqqiyot banki mablag'lari 0,4 milliard dollardan 1 milliard dollargacha oshirilmogda.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar eksport salohiyatini oshirish, xalqaro bozorlarda milliy brend mahsulotlari ulushini kengaytirish va mahalliy korxonalarni xalqarolashtirish maqsadida resurslarga oid yordamlar bilan bir qatorda marketing faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli dasturlarni ham amalga oshirmogda. Marketing nuqtai nazaridan jahon amaliyotida shakllangan quyidagi tajribalar mazkur tadqiqot davomida o'rganildi (1-jadval).

1-jadval

Rivojlangan davlatlarda tashqi savdodagi marketingni qo'llab-quvvatlash amaliyoti

T/r	Davlat nomi	Marketing faoliyatini qo'llab-quvvatlash shakli
1	AQSH	Marketing tahlili va hamkorlarni tanlash
2	Buyuk Britaniya	Savdo missiyalarini tashkil etish va marketing xizmatlarini ko'rsatish
3	Fransiya	Savdo ko'rgazmalarida yordam, PR va marketing kommunikatsiyasi
4	Germaniya	Pavilyonlar va marketing tadqiqotlari uchun grantlar
5	Janubiy Koreya	Raqamli eksport marketingini rivojlantirish
6	Kanada	Raqamli marketing va eksport strategiyasini ishlab chiqish uchun grantlar
7	Niderlandiya	Yashil marketing va brending
8	Slovakiya	Marketing tadqiqotlari va xorijiy hamkorlar bilan aloqa o'rnatish
9	Xitoy Xalq Respublikasi	Raqamli savdo va "Bir kamar, bir yo'l" brendini rivojlantirish
10	Yaponiya	"Japan Brand" milliy brendini rivojlantirish, PR va marketing strategiyasi

Jahon mamlakatlari amaliyotida eksportchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash orqali eksport hajmini oshirish va uning geografiasini kengaytirish bo'yicha yetarli tajribalar to'plangan. Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va ulardan O'zbekistonda eksportni rag'batlantirish siyosatini takomillashtirishda foydalanish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasi.

AQSHda bir nechta federal, shtat va mahalliy hukumat idoralari eksportchilarga moliyaviy ehtiyojlarini qondirishda yordam beruvchi dasturlarni taklif etadi. Ularning ayrimlari tasdiqlangan kredit tashkilotining



ishtirokini talab qiluvchi kafolat dasturlari bo'lsa, boshqalari eksportchining o'ziga yoki xorijiy hukumatga to'g'ridan-to'g'ri kreditlar va grantlar taqdim etishga yo'naltirilgan.

AQSH Eksport-import banki — Ex-Im Bank AQSH hukumatining mustaqil agentligi bo'lib, AQSH tovarlari va xizmatlari eksportini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Federal hukumatning eksport kredit agentligi sifatida Ex-Im Bank quyidagi moliyaviy vositalarni taqdim etadi:


- eksport kredit sug'urtasi;
- kredit beruvchilar uchun kredit kafolatlari;
- eksportchilarga bozor sharoitlariga mos to'g'ridan-to'g'ri kreditlar;
- xorijiy xaridorlarga kreditlar [10].

Ex-Im Bankning sug'urta va kredit kafolatlari eksportchilar hamda moliyaviy institutlarni AQSH eksportini qo'llab-quvvatlashga rag'batlantiradigan tarzda shakllantirilgan. Ushbu vositalar xalqaro savdodagi tijorat xatarlarini, jumladan, xaridorning to'lovga qodir emasligi yoki to'lov majburiyatlarini bajarmasligi, shuningdek, siyosiy xatarlarni, xususan, urush yoki valyuta ayirboshlash imkoniyatining cheklanishi kabi holatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bunday xatarlar sababli AQSH eksportchilari o'z mahsulotlari va xizmatlari uchun xorijiy xaridorlardan to'lov ololmasligi mumkin. Ex-Im Bank tomonidan taqdim etiladigan kreditlar, kafolatlar va sug'urtalar bozor shartlariga muvofiq bo'lib, tijorat hamda siyosiy xatarlarning muhim qismi bank zimmasiga olinadi. Natijada AQSH eksportchilari taklif etayotgan mahsulot va xizmatlar xorijiy raqobatchilarnikiga nisbatan raqobatbardosh bo'lishiga imkon yaratiladi.

Shuningdek, AQSHda eksportchilarning qarz olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan qulay avans stavkalarini taqdim etish mexanizmlari ham mavjud. Ular quyidagilarga taalluqli bo'ladi:

1. Inventar uchun 75 foizgacha avans stavkasi taqdim etiladi. Bunda ishlab chiqarish, muhandislik, dizayn, ish jarayoni va boshqa xizmatlar inobatga olinadi.

Xorijiy debitorlik qarzlar uchun 90 foizgacha avans stavkasi ajratiladi. Kafolatlangan aylanma mablag' uchun ajratiladigan kreditlar eksport buyurtmasi bilan bog'langan debitor qarzlar va zaxiralar, jumladan, yakuniga yetkazilmagan ishlab chiqarish mahsulotlari bilan ta'minlanadi. Shuningdek, kredit doirasida akkreditiv chiqarilgan taqdirda, Ex-Im Bank akkreditiv qiymatining 25 foizi miqdorida garov talab qilish huquqiga ega bo'ladi (1-rasm).



Izoh: Ko'k rang bilan chegaralangan dasturlar yashil chegara bilan ajratilgan asosiy faoliyat turlarini tashkil etadi.

1-rasm. AQSHda eksportchi korxonalarga marketing tadqiqotlari va boshqa yo'nalishlar bo'yicha taqdim etiladigan qo'llab-quvvatlash sohalari¹


1 Muallif ishlanmasi.



Buyuk Britaniya tajribasi.

Buyuk Britaniya Eksportni qo'llab-quvvatlash tashkiloti, keyingi o'rinlarda — UKEF, 1919-yilda tashkil etilgan bo'lib, dunyodagi eng qadimgi va samarali eksport kredit agentliklaridan biri hisoblanadi. U eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari hamda yirik kompaniyalarni qo'llab-quvvatlovchi davlat organidir.

Mazkur tashkilot Buyuk Britaniya bo'ylab iqtisodiy o'sishni ta'minlash va ish o'rinlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilish bilan birga, mamlakatning yashil sanoatdagi yetakchiligini mustahkamlash hamda tez rivojlanayotgan bozorlar bilan tijoriy hamkorlikni kengaytirishga ham muhim hissa qo'shadi (2-rasm).



2-rasm. Buyuk Britaniya Eksportni qo'llab-quvvatlash tashkiloti — UKEF boshqaruv tizimi²

UKEF tomonidan 2019–2023-yillarda eksportchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash doirasidagi yo'nalishlarga 37,3 milliard funt sterling mablag' ajratilgan. So'nggi besh yil davomida UKEF Buyuk Britaniya eksportini qo'llab-quvvatlashda izchil ravishda yuqori darajadagi yordam ko'rsatib kelgan bo'lib, 2023-yilda ushbu maqsadlar uchun 6,5 milliard funt sterling mablag' yo'naltirilgan.

2019–2023-yillarda UKEF tomonidan 2 227 ta korxonaga ko'mak berilgan. To'g'ridan-to'g'ri ajratilgan mablag'larning katta qismi, ya'ni 84 foizi kichik va o'rta korxonalarga yo'naltirilgan [11]. Shuningdek, UKEF 2029-yilgacha har yili qo'llab-quvvatlanadigan kichik va o'rta biznes subyektlari sonini 1 000 tagacha oshirishni maqsad qilgan. Bu esa Buyuk Britaniyada eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tashqi savdo siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

² Buyuk Britaniya tajribasini o'rganish davomida www.great.gov.uk ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan



UKEF butun dunyo bo'ylab strategik bozorlarda 20 nafar xalqaro mutaxassisini joylashtirgan bo'lib, ular Buyuk Britaniya yetkazib beruvchilari uchun yangi shartnomalar tuzishga ko'maklashmoqda. Shu bilan birga, Buyuk Britaniyaning turli mintaqalarida faoliyat yuritayotgan 27 nafar eksport menejeri eksport qiluvchi kompaniyalarni bevosita qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bilan shug'ullanmoqda. Bu esa butun qirolik bo'ylab, jumladan, Shimoliy Irlandiya, Shotlandiya va Uelsdagi kompaniyalarni ham qo'llab-quvvatlash imkonini bermoqda.

Buyuk Britaniyada moliyaviy institutlar orqali qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, Biznes va savdo departamenti tomonidan tashqi savdo faoliyatini olib boruvchi tadbirkorlik subyektlariga bir qator yo'nalishlar bo'yicha amaliy yordam ko'rsatiladi. Mazkur departamentning umumiy faoliyati 3-rasmda batafsil keltirilgan.



Izoh: * eksportchi korxonaning ro'yxatdan o'tish va identifikatsiya raqami.

3-rasm. Buyuk Britaniya hukumatining Biznes va savdo departamenti tomonidan eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari



Janubiy Koreya tajribasi. Janubiy Koreyada savdo va eksportni qo'llab-quvvatlash tizimlari kichik va o'rta korxonalar uchun eksportni qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini yuritish qoidalariga muvofiq shakllantirilgan. Poytaxt va viloyat hududlarida ofislar ochish orqali kichik va o'rta eksportchilar uchun moliyaviy xizmatlar, savdo kanallari, ta'lim hamda xorijiy bozor marketingi bo'yicha turli qo'llab-quvvatlash tizimlari joriy etilgan [12].


Eksportni qo'llab-quvvatlash tizimlari orasida asosiy milliy davlat organi sifatida Kichik va o'rta biznes hamda startaplar vazirligi (Ministry of SMEs and Startups) faoliyat yuritadi. Mazkur vazirlik quyidagi yo'nalishlarda loyihalarni amalga oshirish orqali mahalliy kompaniyalarni eksport faoliyatida qo'llab-quvvatlaydi:

- kichik va o'rta korxonalar uchun savdo missiyalarini tashkil etish;
- xorijiy xususiy tarmoqlardan foydalanish loyihalarini amalga oshirish;
- kichik va o'rta eksportchilar uchun global brendlarni rivojlantirish;
- eksport inkubatorlarini tashkil etish va onlayn eksportni qo'llab-quvvatlash;
- strategik global tovarlar eksporti uchun konsorsiumlarni qo'llab-quvvatlash.

Koreya Respublikasida sanoat, savdo va resurslar sohasi hamda eksportni qo'llab-quvvatlash tizimlarini boshqaruvchi yana bir markaziy ma'muriy organ Savdo, sanoat va energetika vazirligi hisoblanadi. 1948-yilda tashkil etilgan mazkur vazirlik milliy siyosat nuqtai nazaridan quyidagi yo'nalishlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan:

- savdo va investitsiya siyosatini yuritish;
- sanoat texnologiyalarini rivojlantirish;
- milliy rivojlanishda muvozanatni ta'minlash.

Vazirlik ushbu yo'nalishlarda turli biznes tuzilmalari va ixtisoslashtirilgan agentliklar orqali amaliy yordam ko'rsatadi. Asosiy eksportni qo'llab-quvvatlash loyihalari savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish, eksport sug'urtasi fondlarini tashkil etish, savdo infratuzilmasini rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, sanoat texnologiyalari bo'yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda tegishli agentliklarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan (4-rasm).



4-rasm. Janubiy Koreya misolida korxonalarni qo'llab-quvvatlash faoliyatini olib boruvchi tashkilotlar tahlili



Koreya savdo va investitsiyalarni rivojlantirish agentligi — KOTRA Janubiy Koreyada savdoni qo'llab-quvvatlash borasida faoliyat yuritadigan muhim tashkilotlardan biri hisoblanadi. KOTRA Koreya Respublikasining savdo va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantiruvchi davlat agentligi bo'lib, dunyoning 85 ta davlatida joylashgan 131 ta ofisi orqali xorijiy xaridorlar, investorlar va koreyalik tadbirkorlarning ehtiyojlariga moslashtirilgan global biznes platformasi sifatida faoliyat yuritadi. Agentlik bozor dinamikasi va global savdo muhiti bo'yicha chuqur tahliliy ma'lumotlarga ega holda kompaniyalarga faoliyat doirasini kengaytirish hamda yangi imkoniyatlarni aniqlashda moslashtirilgan qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taklif etadi. Shuningdek, tobora murakkablashib borayotgan biznes muhitida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan tahliliy ma'lumotlar va maslahatlarni taqdim etadi.

Koreya kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash agentligi — KOSME eksport inkubatorlarini yaratish, xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish, savdo missiyalarini tashkil etish, eksport bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatish, marketing tadqiqotlarini olib borish hamda xorijda filiallar ochish kabi yo'nalishlarda amaliy yordam ko'rsatadi.

Koreya xalqaro savdo assotsiatsiyasi — KITA ham mamlakatdagi xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlovchi muhim tashkilotlardan biri hisoblanadi. U 1946-yilda tashkil etilgan bo'lib, notijorat tashkilot sifatida Koreyada 14 ta mahalliy va xorijda 11 ta filialga ega. KITAning eksportni qo'llab-quvvatlashdagi asosiy faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- eksport mahsulotlarini xorijda ilgari surish va savdo bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish;
- siyosiy tashabbuslar va takliflar ishlab chiqish;
- xalqaro savdo hamkorligiga ko'maklashish;
- savdo sohasidagi axborotlarni taqdim etish;
- savdo mutaxassislarini tayyorlash.

Janubiy Koreyadagi "Eksport voucher" dasturi kichik va o'rta korxonalarining xalqaro bozorlarga chiqishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan hamda hukumat tomonidan rag'batlantiriladigan muhim tashabbuslardan biridir. Dastur doirasida eksport bilan bog'liq turli xizmatlardan, xususan, marketing va targ'ibot, xalqaro standartlarni joriy etish va muvofiqlikni baholash, logistika, eksport strategiyasini ishlab chiqish, xalqaro bozorlarda samarali faoliyat yuritish, raqamli marketingni qo'llab-quvvatlash, korxona veb-saytlarini ishlab chiqish va elektron tijorat platformalariga integratsiya qilish kabi yo'nalishlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi hamda moliyaviy yordam ko'rsatiladi.

2025-yilda ushbu dastur uchun 61,1 milliard von, ya'ni taxminan 42,1 million AQSH dollari ajratilgan bo'lib, bu orqali 1 300 ga yaqin kompaniyani qo'llab-quvvatlash mo'ljallangan. Marketing yo'nalishida ajratilgan mablag' o'tgan yilga nisbatan 9 foizga oshgan [13]. "Eksport voucher" dasturi mahalliy korxonalarning eksport faoliyati darajasiga qarab quyidagi toifalarga ajratiladi:

1. Eksport tajribasiga ega bo'lmagan mahalliy korxonalar.
2. Eksport tajribasi cheklangan boshlang'ich eksportchilar.
3. Eksport faoliyati o'sib borayotgan istiqbolli eksportchilar.
4. Eksportda barqaror o'sishga ega rivojlanayotgan eksportchilar.
5. Eksport sohasida muhim yutuqlarga erishgan raqobatbardosh eksportchilar.

Kompaniya toifasiga qarab, davlat tomonidan 30 million vondan 100 million vongacha moliyaviy yordam ko'rsatiladi. Agar kompaniyaning so'nggi 3 yildagi eksport hajmi 1 million AQSH dollaridan oshgan va o'rtacha yillik eksport o'sishi 20 foizdan yuqori bo'lgan bo'lsa, bunday holatda 200 million vongacha yordam olish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida Germaniya tajribasi A. A. Ilyosovning "German Experience of State Support of Export of Industrial Products" nomli maqolasida o'rganilgan. Muallifning ta'kidlashicha, Germaniyada eksportni qo'llab-quvvatlash tizimining asosiy xususiyatlari yuqori barqarorlik va samaradorlik, federal hamda mintaqaviy darajada rivojlangan institutsional tuzilma, shuningdek, zamonaviy qo'llab-quvvatlash vositalarining mavjudligi bilan belgilanadi [14].

Xitoy Xalq Respublikasida eksportni rag'batlantirish tizimi S. N. Inogamov tomonidan "Xitoy Xalq Respublikasining eksportni rag'batlantirish tajribasini O'zbekiston Respublikasida qo'llash imkoniyatlari" mavzusida 08.00.09 — "Jahon iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiyada yoritilgan [15].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro tajribalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, eksportchi korxonalarni tashqi bozorlarga olib chiqishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda marketing tadqiqotlari, bozor axboroti, eksport konsaltingi, brending, savdo missiyalari, xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish va raqamli marketing instrumentlari muhim ahamiyat kasb etadi. AQSH, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya va Xitoy Xalq



Respublikasi tajribasi eksportni rivojlantirishda davlat institutlari, eksport kredit agentliklari, biznes va savdo departamentlari hamda ixtisoslashtirilgan agentliklar faoliyati samarali natija berishini ko'rsatadi. Jumladan, AQSH tajribasida Ex-Im Bank tomonidan eksport kredit sug'urtasi, kredit kafolatlari, to'g'ridan-to'g'ri kreditlar va xorijiy xaridorlarni moliyalashtirish mexanizmlari qo'llanilsa, Buyuk Britaniya tajribasida UKEF hamda Biznes va savdo departamenti orqali eksportchi korxonalar moliyaviy, maslahat, logistika, bozor tahlili va savdo missiyalari yo'nalishlarida qo'llab-quvvatlanadi. Janubiy Koreya tajribasida esa KOTRA, KOSME, KITA va "Eksport voucher" dasturi orqali kichik va o'rta biznes subyektlarining xalqaro bozorlarga chiqishi, raqamli marketingdan foydalanishi, brend yaratishi va xorijiy hamkorlar bilan aloqa o'rnatishi rag'batlantiriladi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda eksportchi korxonalarni, ayniqsa, meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarni tashqi bozorlarga olib chiqishda xalqaro tajribaga asoslangan kompleks qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda eksportchi korxonalar uchun marketing tadqiqotlari, xorijiy bozor tahlili, xaridor va hamkorlarni izlash, eksport strategiyasini ishlab chiqish hamda brending xizmatlarini qamrab oluvchi yagona eksport marketing platformasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, Janubiy Koreyaning "Eksport voucher" dasturi tajribasi asosida kichik va o'rta eksportchi korxonalar uchun maxsus "Eksport marketing voucher" dasturini joriy etish, ushbu dastur orqali xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish, elektron tijorat platformalariga chiqish, veb-sayt yaratish, raqamli reklama, sertifikatlash va eksport konsaltingi xarajatlarini qisman qoplash tizimini yo'lga qo'yish lozim. Buyuk Britaniyaning "Eksport akademiyasi" tajribasi asosida mahalliy eksportchi korxonalar uchun amaliy o'quv kurslari, treninglar va maslahat xizmatlarini tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda korxonalarga xorijiy bozorlarni tanlash, eksport shartnomalarini tuzish, logistika, bojxona tartib-taomillari, xalqaro to'lovlar va risklarni boshqarish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalar berilishi lozim. AQSH Ex-Im Bank tajribasidan kelib chiqib, eksportchi korxonalar uchun eksport kredit sug'urtasi, aylanma mablag'larni moliyalashtirish, xorijiy xaridorlar bilan hisob-kitob risklarini kamaytirish va eksport shartnomalarini kafolatlash mexanizmlarini kengaytirish zarur. Meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishda "Made in Uzbekistan" va hududiy brendlarni xalqaro bozorlarda faol targ'ib qilish, mahsulotlarni qadoqlash, markirovkalash, ekologik sertifikatlash va sifat standartlariga moslashtirish bo'yicha marketing-kommunikatsiya dasturlarini kuchaytirish lozim. Bundan tashqari, eksportchi korxonalar uchun xalqaro ko'rgazmalar, savdo missiyalari va B2B uchrashuvlarda ishtirok etish xarajatlarini qisman qoplash tizimini kengaytirish mahalliy korxonalarning xorijiy xaridorlar bilan bevosita aloqa o'rnatishi va yangi eksport shartnomalarini tuzish imkoniyatini oshiradi. Umuman olganda, xalqaro tajribada qo'llanilayotgan eksportni moliyaviy, institutsional va marketing jihatdan qo'llab-quvvatlash modellarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish milliy eksport salohiyatini oshirish, kichik va o'rta biznes subyektlarining tashqi bozorlardagi ishtirokini kengaytirish, korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda eksport geografiyasini diversifikatsiya qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cadogan, J. W., Cui, C. C., & Li, E. K. Y. (2003). Export market-oriented behavior and export performance. *International Marketing Review*, 20(5), 493–513.
2. Francis, J., & Collins-Dodd, C. (2004). Impact of export promotion programs on firm competencies, strategies and performance. *International Marketing Review*, 21(4/5), 474–495.
3. Lederman, D., Olarreaga, M., & Payton, L. (2010). Export promotion agencies: Do they work? *Journal of Development Economics*, 91(2), 257–265. <https://doi.org/10.1016/j.jdeveco.2009.09.003>
4. Freixanet, J. (2012). Export promotion programs: Their impact on companies' internationalization performance and competitiveness. *International Business Review*, 21(6), 1065–1086. <https://doi.org/10.1016/j.ibusrev.2011.12.003>
5. Freixanet, J. (2022). Export promotion programs: A system-based systematic review and agenda for future research. *Journal of World Business*, 57(4), 101344. <https://doi.org/10.1016/j.jwb.2022.101344>
6. Freixanet, J., & Churakova, I. (2018). The impact of export promotion programs on firms' export competencies and performance in a transition economy: The case of Russian manufacturers. *Journal of East-West Business*, 24(4), 287–318.
7. Catanzaro, A., & Teyssier, C. (2021). Export promotion programs, export capabilities, and risk management practices of internationalized SMEs. *Small Business Economics*, 57(3), 1479–1503.
8. Makioka, R. (2020). The effectiveness of export promotion measures: A survey. VoxEU CEPR Policy Portal.
9. Traiyarach, S., & Banjongprasert, J. (2022). The impact of export promotion programs on export competitiveness and export performance of craft products. *Journal of Marine Science and Engineering*, 10(7), 892. <https://doi.org/10.3390/jmse10070892>
10. Barry, D. (Ed.). (2015). A basic guide to exporting (11th ed.). U.S. Department of Commerce. ISBN 978-0-



16-092095-0.

11. Export Credits Guarantee Department (UK Export Finance). (2023). Annual Report and Accounts 2022–23. June 28, 2023.
12. Kim, B.-G. (2020). An empirical analysis of trade support system and export performance in Korean SMEs. *Journal of Economics, Marketing, and Management*, 8(1), 36–49.
13. Kim, N. Y. (2025). Gov't to provide 61.1 bln won worth of export vouchers to SMEs this year. Yonhap News Agency. March 13, 2025. <https://en.yna.co.kr>
14. Ilyosov, A. A. (2022). German experience of state support of export of industrial products. *International Journal of Theoretical and Practical Research*, 2(9), 46–56.
15. Inogamov, S. N. (2021). *Xitoy Xalq Respublikasining eksportni rag'batlantirish tajribasini O'zbekiston Respublikasida qo'llash imkoniyatlari* [Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, 08.00.09 — Jahon iqtisodiyoti]. Toshkent. 118 bet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>